

TEXNIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA

¹Abdumajidov Abdurahmon Avazbek o'g'li,

²Uktamjonova Zulayxo

¹Farpi, Ishlab chiqarish va boshqaruv fakulteti BH va A talabasi,

²FarPI, ilmiy rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7413090>

Ma'lumki, bugungi kunda dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarida ta'lim paradigmasi o'zgarib bormoqda. Osiyo ta'lim modeliga asosan o'quv jarayoni nazariy bilimlar berishdan olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga, axborot texnologiyalari asosida talabalarda mustaqil ta'lim olish malakalarini shakllantirishga qaratilmoqda. Shveysariya Jahon iqtisodiy forumi "World Economic Forum" iqtisodiyoti eng tez rivojlanayotgan mamlakatlar reytingini e'lon qildi. Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, kadrlar tayyorlash mazmunini zamonaviy talablar asosida tubdan qayta ko'rib chiqish, raqobatbardosh oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash hamda sohani jahon standartlari darajasida rivojlantirishda oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni boshqarishni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada asosiy bilim sohalari bo'yicha elektron ta'lim resurslari milliy tizimini yaratish, jahonning ta'lim resurslariga kirish va bu infrastrukturani takomillashtirish, o'quv jarayonida jahonning va milliy elektron ta'lim resurslaridan axborot kommunikatsiya texnologiyalari orqali foydalanish, o'quv yurtlarini moddiy-texnika bazasini va tarmoqli infratuzilmani rivojlantirish muammolari oliy ta'lim tizimida dolzarbdir.¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan bugungi kunda ta'lim sohasida amalga oshirilishi zarur bo'lgan masalalar, oliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'limda yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish zarurligi va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Ushbu mavzuni tadqiq etish yuzasidan xorijiy va mamlakatimiz olimlarining

¹. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909- sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

ta'lim tizimini takomillashtirish masalalari, innovatsion menejmentning nazariy va metodologik asoslari, shuningdek ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini qo'llash usullariga bag'ishlangan ilmiy asarlar mavjud.

Innovatsion faoliyat sohasiga, ta'lim berishda axborot texnologiyalariga aloqador dolzarb muammolarning yechimini izlashga o'z vaqtida F.I.Peregudov munosib hissa qo'shdi.²

Maorif sohasidagi innovatsion jarayonlarning kechishiga oid turli xil muammolarni ilmiyjihatdan tadqiq qilishga Yaponiyani oliy ta'lim tizimini boshqarish muammolarini korxonalar va oliy o'quv yurtlarini ilmiy yo'nalishdagi hamkorligi masalalarini oliy ta'lim tizimida mutaxassis kadrlarni tayyorlash sifati va bu jarayonni boshqarish ilmiy boshqarishni AQSH tajribasini o'rgangan inson resurslarini boshqarish bo'yicha Oliy ta'lim tizimida boshqaruv qarorlarini qabul qilishning Rossiya tajribasini o'rgangan va boshqalar o'z hissalarini qo'shganlar. Ta'lim berishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan samaradorligini baholash muammosining ayrim nazariy jihatlarini o'rganib chiqishga so'nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlar inson resurslarini boshqarish, kadrlarni tayyorlash, oliy ta'lim tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalalariga, personalni boshqarishda xorijiy mamlakatlar tajribasi zamonaviy sharoitda oliy ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish masalalariga kabi O'zbekistonlik yetuk olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida, asarlarida, maqolalarida o'rganilgan va yoritilgan.

Shu bilan birga ta'kidlash lozimki, oliy ta'lim muassasalarining ilmiy-innovatsion faoliyatini yo'lga qo'yish hamda uni rivojlantirish bilan bog'liq masalalarga mutaxassis va olimlar tomonidan yetarlicha e'tibor berilmagan. Bu holat mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini belgilaydi.

Oliy ta'lim tizimida talabarni qiziqdirish va dars otish faoliyatni axborot texnologiyalari asosida takomillashtirishdagi muammolarga aniqlik kiritildi. Muammoni yechish bo'yicha yo'nalishlar izlandi. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan amaliyotga chiqanida talabalar ish holatini yetarli darjada o'rgana olmaydi u holda oliy ta'limda kadrlarni baholashning miqdoriy baholash sifatida ekspert baholari yordamida amalga oshirildi. To'plangan ma'lumotlar asosida iqtisodiy tahlilning qiyoslash, empirik metodlari – umumlashtirish, guruhlash, kuzatish, tizimli yondashuv kabi uslublardan samarali foydalanildi.

² Innovatsion faoliyat sohasiga, ta'lim berishda axborot texnologiyalariga aloqador dolzarb muammolarning yechimini izlashga o'z vaqtida F.I.Peregudov munosib hissa qo'shdi.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan amaliyotga chiqish vaqtida. Ushbu masala yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilganligi natijasida talabalar amaliyot davrida o'z joyida bo'lmasligi aniqlanib bog'liqligini ko'rib chiqdik. Buning asosida xar bita korxonadan bitadan mutaxassis kadrlar oliy ta'limga kelib amaliyot darslarni shu yerda o'tsa agar xamma talabalar qatnashish samaradorlikni aniqladik.

Samarali o'quv amaliyot darslari o'zining vaqt bilan cheklangan vazifasini tushunishi va uning bajarilishi uchun kompyuter bo'lishi lozim. O'quv amaliyotlarda mezonlarini ishlab chiqishi lozim. Bu o'xshashlik asosan loyiha maqsadi bilan belgilanadi. Amaliyotdan tashqaridan yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Loyihaning yakuniy natijasiga diqqatni qaratish maqsadida tashkilotning keng ko'lamli strategiyasidan xavfli darajada ajralmagan holda uning mustahkamligini saqlab qolishga yordam beradi. Nihoyat, muvaffaqiyatli o'quv amaliyot uchun turli malakalarga ega bo'lishi xosdir. Amaliyotni turli-tumanligi - bu uning kuchidir. U vazifalarni bajarishdagi pedagoglarning malakasi mujassamligiga qarab kuchayib boradi. talabalar ijodiy, konstruktiv va birgalikda fikrlay olishi lozim.

Yuqoridagi tahlil va fikrlardan kelib chiqib, biz oliy ta'lim tizimida amaliyotlarni o'qish joyida faoliyatni axborot texnologiyalari asosida takomillashtirish borasida quyidagi ishlarni amalga oshirishni lozim deb hisoblaymiz:

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va uning tasarrufidagi oliy ta'lim muassasalarida o'quv-uslubiy va ilmiy jarayonlarni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish bo'yicha yangi dasturlar ishlab chiqish lozim. Shu bilan birga

zamonaviy axborot-kommunikatsiya va internet texnologiyalari-ning imkoniyatlaridan unumli foydalanib, yangi uslubdagi masofaviy ta'lim tizimi (MTT) ni shakllantirish va hayotga tatbiq etish masalasiga ham e'tibor qaritish payti keldi, degan fikr bildiriladi. Buning uchun birinchi navbatda MTT ning asosiy me'yoriy hujjatlari ishlab chiqilishi lozim.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909- sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. Dronishines N.P. Проблемы управления системой высшего образования в Японии // Университетское управление. - 2002. - 1. - S. 70-79
3. Abduraxmonov K.X. Mexnat iqtisodiyoti (nazariya va amaliyot). Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. - T.: Mehnat, 2004. - 672 b

4. Zaysev N.L. Ekonomika, organizatsiya i upravleniye predpriyatiyem:
Ucheb.posobiye. - 2-ye izd. - M.: INFRA-M, 2008. - 455 s.